

FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Malikov Sharifjon O'ktam o'g'li
Toshkent viloyati yuridik texnikum
davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi 2-kurs o'quvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337048>

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik-huquqiy javovbgarlik tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, javobgarlikning vujudga kelish asoslari, yuridik tarkibi muhokama qilingan bo'lib, fuqarolik majburiyatlarini bajarmagan shaxs uchun fuqarolik-huquqiy ta'sir choralari qo'llash asoslari tahlil qilingan

Kalit so'zlar: fuqarolik-huquqiy javobgarlik, obyekt, subyekt, neustoyka

Har qanday huquq tarmog'i kabi fuqarolik huquqi uchun ham eng muhim masalalardan biri fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq normalariga rioya qilgan holda faoliyat yuritishga harakat qilishlarini ta'minlash hisoblanadi.

Odatda, fuqarolik huquqi predmetining asosiy qismi subyektlar o'rtasidagi, odatdagi, kundalik normal munosabatlar hisoblanadi. Bu munosabatlarning normal doiradan tashqariga chiqishi fuqarolik huquqi normalarining buzilishini, fuqarolik-huquqiy javobgarlik tartibidagi masalani keltirib chiqaradi. Biroq repressiv huquq sohalaridan (jinoiyat huquqi, ma'muriy huquq va boshqa ommaviy huquq sohalari) farqli ravishda fuqarolik huquqi subyektlarga jazolash, ta'qib qilish orqaligina ta'sir ko'rsatish maqsadini qo'ymaydi.

Fuqarolik huquqining ta'sir usullari ko'proq imkoniyat berish, tanlash uchun sharoit yaratish, tashabbus ko'rsatishni rag'batlantirish va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Biroq fuqarolik-huquqiy munosabatlar har doim bir maromda normal davom etishi imkoniyati bo'lmaydi.

Ba'zi hollarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda normal holatdan chetga chiqish kuzatilishi mumkin. Agarda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda javobgarlik keltirib chiqarishlarini istisno etuvchi asosiy xatti-harakat qoidasini shakllantirish mumkin bo'lsa, bu quyidagi ikki qoidada o'z mujassamini topgan bo'lar edi: A) O'z majburiyatlarini vijdonan bajar; B) Hech kimga zarar keltirma. Yuqoridagi ikki qoidaga rioya qilmaslikda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni muqarrar vujudga keltiruvchi holatlarning mohiyati namoyon bo'ladi. Birinchi holat majburiyat munosabatlari bilan bog'liq.

Aksariyat hollarda subyektlar kirishgan o'zaro fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmuni ularning bir-birlariga nisbatan huquq va

majburiyatlarida namoyon bo'ladi. Bu asosan shartnomaviy munosabatlar hisoblanadi. Shartnomaviy munosabatlar bo'yicha majburiyatlarni har qanday buzilishi muayyan fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini qo'llashga sabab bo'ladi. Ikkinchi holda esa fuqarolik huquqi subyektlari kundalik turmushida boshqa biror subyekt huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazmasligi bilan bog'liq.

Bunda subyekt o'zi uchun shunday maqbul xatti-harakat, xulqatvor qoidasini belgilash lozimki, toki bu boshqalarning mol-mulkiga zarar keltirmasligi lozim. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, fuqarolik-huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti-harakat fuqarolik huquqbuzarlik hisoblanadi. Bunda huquqbuzarlik, nafaqat bevosita fuqarolik normalarini buzish, balki taraflar o'rtasida o'zaro kelishuv asosida belgilangan shartnoma shartlarini buzish ham hisoblanadi.

Binobarin, u nafaqat davlat tomonidan belgilangan ommaviy huquq normasi, balki fuqarolar, yuridik shaxslarning o'zlari tomonidan belgilangan xususiy huquq normalari buzilishi tarzida ham namoyon bo'ladi. Yuqoridagilardan fuqarolik-huquqiy munosabatlar faqat unda ishtirok etuvchi shaxslarga talluqli va bu borada vujudga keladigan huquqbuzarlik oqibatlari ta'siri ham cheklangan degan xulosaga kelmaslik lozim.

Bozor munosabatlari tizimida muayyan yaxlitlik va uyg'unlik mavjud, binobarin, qayerdadir kimdirning o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki boshqalarga zarar yetkazishi o'z navbatida boshqa munosabatlar tizimiga ham salbiy ta'sir qiladi. Masalan, aholining ba'zi qatlamlari tomonidan kommunal to'lovlarning o'z vaqtida to'lanmasligi energiya yetkazib beruvchi tashkilotlarning energetika qurilmalarini ta'mirlash, soz holatda saqlab turish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Demak, bundan kelib chiqadiki, fuqarolik-huquqiy normalarning buzilishi o'ziga xos zanjir reaksiyasini hosil qilishi mumkin. Ko'pchilik stivist olimlar fuqarolik-huquqiy javobgarlikni majburiyatlarni buzgan yoki boshqalarga zarar yetkazgan subyektlar uchun noqulay salbiy oqibatlarni vujudga keltirish va qo'llash ma'nosida talqin qilishadi. Odatda, huquq nazariyasida javobgarlik sanksiyasini qo'llash jarayoni fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yakuni sifatida tavsiflanadi.

Biroq fuqarolik-huquqiy munosabatlar xarakteridan kelib chiqqan holda fuqarolik-huquqiy javobgarlik konstruksiyasi huquq nazariyasida belgilangan huquqiy javobgarlik konstruksiyasi va repressiv huquq sohalarida qat'iy belgilab qo'yilgan huquqbuzarlik tarkibiga (masalan, jinoyat, ma'muriy huquq va shu kabilar) aynan mos kelavermasligini ta'kidlash lozim.

Hozirgi davrda qo'llanilayotgan fuqarolik-huquqiy ta'sir choralari nafaqat moddiy zararni qoplash, balki moddiy zararni to'laqonli ravishda qoplash (boy berilgan foydani hisobga olgan holda) va ayni paytda ma'naviy zararni qoplash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy zararni qoplash xarakteri moddiy zararni qoplash xarakteri bilan aynan mos kelmaydi va ularni bir xil ma'noda qo'llash mumkin emas. Jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar pul ko'rinishida qoplanganda, jismoniy og'riq va ruhiy iztiroblar oqibatlari to'liq bartaraf etilmasligi mumkin.

Bunda, ma'naviy zararni pul ko'rinishida qoplash, ushbu oqibatlarni yumshatadi holos, lekin to'liq bartaraf etmaydi. Ma'naviy zararni qoplash fuqarolik-huquqiy munosabatlarda keng qo'llanayotgan hozirgi sharoitlarda buni hisobga olmagan holda fuqarolik javobgarlik mohiyatini to'liq ochib berish mumkin emas. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik o'zida mujassam etadigan elementlar: -davlat majburlov chorasi ekanligi va ayni paytda ixtiyoriy ravishda ijro etishi mumkinligi; -qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilishi; -huquqbuzar yoki qonun hujjatlarida javobgarlik zimmasiga yuklatilgan subyektlar uchun salbiy oqibatlar yuzaga kelishi; -huquqbuzarlik uchun yetkazilgan zararni qoplash, huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etish yoki yumshatishga qaratilgan bo'lishi; -huquqbuzar uchun muayyan subyektiv huquqlardan maxrum bo'lish yoki qo'shimcha fuqarolik majburiyatlarini yuklash yoki boshqa noqulay oqibatlar vujudga kelishida namoyon bo'lishi bilan bog'liq ta'sir choralari qo'llashda o'z mujassamini topadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik deb, fuqarolik qonun hujjatlari yoki shartnomalarda nazarda tutilgan, ixtiyoriy amalga oshirilmagan taqdirda davlat majburlov kuchi bilan ta'minlangan, fuqarolik huquqbuzarligi oqibatlarini bartaraf etishga, shu jumladan, zararlarni to'liq qoplashga yoxud ushbu oqibatlarni yumshatishga qaratilgan, huquqbuzar yoki qonun hujjatlarida javobgarlik zimmasiga yuklatilgan subyektlarni muayyan subyektiv huquqlardan maxrum qilish yoki qo'shimcha fuqarolik majburiyatlarini yuklash yoxud boshqa noqulay salbiy oqibatlarni vujudga keltirishda namoyon bo'ladigan huquqiy ta'sir choralarning qo'llanilishidir. Ushbu ta'rif umumiy universal xarakterga ega bo'lib, u shartnomaviy majburiyatlar sohasiga hamda delikt sohasiga ham to'laqonli taalluqli bo'ladi. Ayni paytda nafaqat mulkiy ta'sir choralari, balki nomulkiy shaxsiy ta'sir choralari ham javobgarlik ta'sir choralari sifatida qo'llanilishini istisno etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи. 2-қисм. Дарслик. – Тошкент: ТДЮУ, 2019. 684 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 2-жилд. (иккинчи қисм). Адлия вазирлиги. –Тошкент: Baktria Press, 2013. 912 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 3-жилд. (иккинчи қисм). Адлия вазирлиги. –Тошкент: Baktria Press, 2013. 800 б.
4. Имомов Н.Ф. Юридик шахс моҳиятининг фуқаролик-ҳуқуқий талқини (назарий масалалар). Монография. –Тошкент: ТДЮУ, 2017. 156 б.
5. Оқюлов О., Рўзиназаров Ш.Н., Имомов Н.Ф. Фуқаролик қонунчилигининг ривожланиши ва такомиллаштириш истиқболлари (ахбороттаҳлилий материал). –Тошкент: ТДЮИ, 2015. 111 б.